



ISSUES OF PROTECTING THE RIGHTS AND LEGITIMATE INTERESTS OF INDIVIDUALS AT THE STAGE OF INITIATING A CRIMINAL CASE

Khurshid Ashraphodjayevich Rakhmedov

Senior prosecutor of the department of the General prosecutor's office of the Republic of Uzbekistan

E-mail: raxmedovx@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: stage of initiating a criminal case, rights and legitimate interests of individuals, status, witness, suspect, attesting witness, crime victim, constitution, law, foreign experience, rights and freedoms.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article analyzes the issues of protecting the rights and legitimate interests of individuals at the stage of initiating a criminal case. Particular emphasis is placed on defining the legal status of individuals in order to safeguard their rights and legitimate interests during the pre-investigation stage. The article examines not only national and foreign legislation but also the opinions of scholars.

JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH BOSQICHIDA SHAXSLARNING HUQUQ VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISH MASALALARI

Xurshid Ashraxonodjayevich Raxmedov

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

boshqarma katta prokurori

E-mail: raxmedovx@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi, shaxs huquq va qonuniy manfaatlarini, maqom, shohid, gumondor, xolis, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs, konstitutsiya, qonun, xorijiy tajriba, huquq va erkinliklar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari tahlil qilingan. Eng muhimi tergovga qadar bosqichida shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ularning huquqiy maqomini belgilash to'g'risidagi masalalariga urg'u berib o'tilgan. Ushbu maqolada milliy va

ВОПРОСЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ И ЗАКОННЫХ ИНТЕРЕСОВ ЛИЦ НА СТАДИИ ВОЗБУЖДЕНИЯ УГОЛОВНОГО ДЕЛА

Хурийд Ашрафходжаевич Рахмедов

Старший прокурор управления Генеральной прокуратуры

Республики Узбекистан

E-mail: raxmedovx@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: стадия возбуждения уголовного дела, права и законные интересы личности, статус, свидетель, подозреваемый, понятой, потерпевший от преступления, конституция, закон, зарубежный опыт, права и свободы.	Аннотация: В данной статье проанализированы вопросы защиты прав и законных интересов личности на стадии возбуждения уголовного дела. Особое внимание уделено вопросам определения правового статуса лиц для обеспечения их прав и законных интересов на досудебной стадии. В статье рассматриваются не только национальное и зарубежное законодательство, но и научные взгляды ученых.
--	---

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligining samarali tizimini yaratish davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlash, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tinchlik va xavfsizlikni ishonchli himoya qilish bo‘yicha ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi [1]. Unda, jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifalar qo‘yilgan.

Jinoyat protsessining har bir bosqichida ishtirokchi shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish dolzarb vazifa bo‘lib, bu huquqiy davlatda qonuniylik va odil sudlovni ta’minlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish butun ish yuritish davomida amalga oshiriladi. Ammo, tezkor-qidiruv yoki tergovga qadar tekshiruv olib borish jarayonida (ta’qib qilinayotgan) shaxslarni huquqiy maqomi belgilanmagan. Yoyinki, jinoyat protsessual qonunchiligida jinoyatdan jabr ko‘rgan shuningdek jinoyat ishiga shohid sifatida jalb qilingan shaxslarni huquqiy maqomi mustahkamlanmagan. Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator moddalarida ularning huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish kafolatlangan. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasida

insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi" (19-modda); "Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas" (20-modda); "Shaxsni ushlash chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart" (29-modda); "Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega" (29-modda); Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ularga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi (29-modda) [2]. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida shaxslarning huquqlari mustahkamlanmaganligi ushbu bosqichda ularning himoyasi yo'qligini anglatmaydi.

Mazkur bosqichda, tergovga qadar, tezkor-qidiruv faoliyati jinoyat-protsessual xususiyatga ega bo'lib, ular ushbu bosqichda ishtirok etayotgan shaxslarning huquq va erkinliklariga ta'sir etishi mumkin, bu esa ularni buzish xavfini tug'diradi. Va bu himoyaga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ayblanuvchi va jabrlanuvchining protsessual maqomiga faqat dastlabki tergov jarayonida ega bo'lishlariga qaramay, jinoyat ishi qo'zg'atilish bosqichidayoq ular ma'lum huquqlarga va himoyasiga muhtoj.

Dastlabki tergov davrida tergovchi jinoyat haqidagi ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni guvoh sifatida jalb qilish to'g'risida chaqiruv qog'ozi yuborgandan so'ngina, u guvoh maqomiga ega bo'ladi, ungacha u shohiddir, biroq jinoyat protsessual qonunchilikda shohidni huquq va majburiyatlari belgilanmagan. Yoyinki, jinoiy ta'qib qilinayotgan (tezkor-qidiruv tadbir olib borilayotgan) shaxs ya'ni gumondor shaxsni olaylik, uning ham huquq va erkinliklari belgilanmagan. Vaholanki, amaliyotda uning telefon, pochta va boshqa xabarlarini eshitilishi mumkin. Ammo, har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlarini sir saqlanishi huquqiga ega (Konstitutsiya 31-modda). Demak, shaxslarning konstitutsiyaviy huquqni himoya qilish masalasi ochiq qolmoqda. Chunki, ularning huquqiy maqomi jinoyat protsessual qonunchilikda belgilanmagan.

Xuddi shu kabi, tezkor-qidiruv tadbirlari doirasida kuzatuv ostida turgan yoki tekshiruv o'tkazilayotgan shaxs – ya'ni ayni paytda gumon qilingan shaxs – uchun ham qonun hujjatlarida aniq huquqiy maqom mavjud emas. Vaholanki, bunday shaxs tergovga qadar bosqichda turli choralarga duchor bo'lishi mumkin. Masalan, JPKda jinoyat haqida xabar tekshirilayotgan davrda shaxsni qisqa muddatga ushlab turish, shaxsiy tintuv va olib qo'yish, voqea joyini ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlash va hatto tezkor-qidiruv choralari qo'llash mumkin. Lekin bu

jarayondagi shaxslarga himoya huquqi, o'zini oqlash uchun dalillar taqdim etish huquqi kabi kafolatlar biriktirilmagan.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida huquqiy bo'shliq vujudga keladi: shaxsning huquqlari qonun bilan to'liq mustahkamlanmagan bo'lsa-da, uning erkinligi yoki daxlsizligiga ta'sir etadigan harakatlar amalga oshirilishi mumkin. Ammo tergovga qadar surishtiruv davomida gumonlangan shaxsning telefon orqali suhbatlarini yashirin tinglash, xabarlarini nazorat qilish kabi choralar qo'llanishi mumkin. Agar bu choralar sud nazoratisiz, huquqiy asoslarsiz amalga oshirilsa, shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari buzilishiga olib keladi. Shu sababli, tergovga qadar bosqichda ham shaxsning daxlsizlik, advokat yordamidan foydalanish kabi huquqlari ishonchli muhofaza etilmog'i lozim.

E'tiborga loyiq jihati shundaki, hatto jinoyat ishi hali rasman qo'zg'atilmagan bosqichda ham konstitutsiyaviy prinsip va kafolatlar amal qiladi. Masalan, Konstitutsiyaning 29-moddasiga ko'ra, shaxs ushlangan paytdan e'tiboran (ya'ni harakatlanish erkinligi cheklangan zahoti) unga tushunarli tilda o'z huquqlari va ushlab turilishining asoslari tushuntirilmog'i shart. Demak, agar shaxs jinoyat ishini qo'zg'atish bo'yicha tekshiruv doirasida ushlansa yoki vaqtinchalik ozodlikdan mahrum etilsa, u darhol o'z huquqlarini bilishi va himoyalaniish imkoniga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, konstitutsiya har bir shaxsning advokat yordamidan foydalanish huquqini, o'z aybsizligini isbotlash majburiyati yo'qligini, noqonuniy yo'sinda olingan dalillar kuchga ega emasligini kafolatlagan. Demak, qonunchilikda bu prinsiplarning hayotga tatbiq etilishi uchun tegishli normalar bo'lishi zarur.

Tahlil va natijalar. Amaliyotda, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslar jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida quyidagi huquqlarga ega bo'lishlari lozim: [3]

- jinoyat sodir etilganligi to'g'risida og'zaki va yozma (elektron) ravishda ariza berish;
- bila turib yolg'on xabar berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilishi;
- jinoyat to'g'risidagi xabar qabul qilinganligi haqidagi hujjatni, uni qabul qilgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek xabar qabul qilingan sana va vaqttni ko'rsatgan holda olish;
- jinoyat to'g'risidagi xabarni qabul qilish rad etilganligi ustidan shikoyat qilish.

Shunday qilib, ko'rib chiqilayotgan bosqichda ariza beruvchining ham o'z protsessual manfaati mavjud bo'lib, u nafaqat unga qonun bilan berilgan huquqlarni amalga oshirishdan, balki jinoyat ishining qo'zg'atilishidan ham iborat. Bu manfaat esa himoyaga muhtoj.

Bu huquqlarning amal qilishi ariza beruvchi (jabrlanuvchi)ning manfaatlarini himoya qiladi. Chunki, jabrlanuvchi faqat o'z huquqidan foydalanib ariza berish bilangina cheklanmaydi – uning manfaati jinoyat ishi qo'zg'atilishi, jinoiy ta'qib boshlanishida ham namoyon bo'ladi. Agar huquq-tartibot idorasi arizani qabul qilib ro'yxatga olmasa yoki sababsiz jinoyat ishini qo'zg'atishni

kechiktirsa, bu jabrlanuvchining qonuniy manfaatlariga zid bo'ladi. Achinarlisi, ba'zi hollarda amaliy tajribada shunday qonunbuzarliklarga yo'l qo'yilgani ma'lum: masalan, tushgan xabarni hisobotdan yashirish, jinoyat ishini qo'zg'atmaslik haqida asossiz qarorlar qabul qilish yoxud qaror qabul qilishni kechiktirib yuborish holatlari uchraydi. Albatta, bunday hollarda prokurorlik nazorati va yuqori turuvchi organlarga shikoyat qilish mexanizmi mavjud. Prokuror nazorati orqali ba'zan buzilgan huquq tiklanadi, ammo shuni qayd etish kerakki, prokurorlik nazorati hamma vaqt ham darhol samara bermasligi va barcha holatlarni qamrab ololmasligi mumkin. Shu bois, huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxsning o'z vaqtida himoyalaniishi uchun protsessual kafolatlarni to'g'ridan-to'g'ri qonunlarda mustahkamlash zarur. Jinoyat protsessining dastlabki bosqichida ariza beruvchi shaxsning murojaati qonuniy hal etilishi, uning arizasi yuzasidan odil qaror qabul qilinishi va har qanday qarori ustidan shaffof tartibda shikoyat qilish imkoniyati bo'lishi lozim. Bu nafaqat jabrlanuvchining shaxsiy huquqini, balki keng ma'noda jamiyatning adolatga bo'lgan ishonchini ham mustahkamlaydi.

Dastlabki tergovga qadar tekshiruv yoki tezkor surishtiruv davomida nazorat ostida bo'lgan, jinoiy qilmish sodir etganlikda shubha ostida turgan shaxsning ham huquqiy himoyasi alohida e'tibor talab qiladi. Chunki bunday shaxs hali rasman ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi maqomiga ega bo'lmagan bo'lsa-da, u haqida muayyan ma'lumotlar to'planmoqda va hatto huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan muayyan chora-tadbirlar qo'llanilishi mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham qonun idoralariga shaxsni ushlab turish, shaxsiy ko'rik va tintuv o'tkazish, pochta-telegraf jo'natmalarini tekshirish, ekspertiza tayinlash, audio-videoqayd orqali kuzatuv olib borish kabi huquqiy tusdagi harakatlarni amalga oshirishga ruxsat etiladi. Albatta, bunday harakatlar faqat qonun bilan belgilangan holatlarda va prokuror sanksiyasi yoki sud ruxsati asosida amalga oshirilishi lozim. Lekin amalda bunday choralar qo'llanilgan taqdirda, tekshiruv ostidagi shaxsning protsessual huquqlari (masalan, o'zini himoya qilish uchun advokatga ega bo'lish, o'z himoyasi uchun dalillar keltirish, sukut saqlash huquqi va h.k.) ta'minlanishi hozirgi qonunchilikda yetarlicha ochiq belgilanmagan.

Shunisi muhimki, shaxs ushlanganda yoki gumon qilinayotgan bo'lsa ham, u o'z huquqlarini bilish va himoya qilish imkoniga ega bo'lishi kerak. Konstitutsiyaning talabiga binoan, har qanday ushlab chog'ida shaxsga tushunarli tilda uning qanday huquqlari borligi va ushlab turilishi sabablari tushuntirilishi shartdir. Bu qoida jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin, masalan, tezkor tadbir davomida vaqtincha ushlangan shaxsga nisbatan ham tatbiq etilishi lozim. Amalda esa tekshiruv davrida ushlangan shaxsga darhol advokat jalb qilish imkoniyati har doim ham berilmayotgani, uning protsessual maqomi aniq bo'lmagani sababli ba'zi hollarda huquqlari tushuntirilmay qolayotgan holatlar mavjud.

Gumon qilinayotgan shaxsning huquqlarini himoya qilish faqat uning shaxsiy manfaati emas, balki odil sudlov tamoyillariga rioya etish shartidir. Ayblanuvchining huquqlari qonun bilan belgilab qo'yilgan (masalan, JPKda gumon qilinuvchining, ayblanuvchining huquqlari ro'yxati mavjud), biroq jinoyat ishi hali qo'zg'atilmagan sharoitda "gumondor" shaxs ushbu himoya kafolatlaridan rasman foydalana olmaydi. Masalan, u o'z xohishiga ko'ra tergov harakatlarida ishtirok etish yoki ko'rsatma berishdan bosh tortish huquqiga ega ekanini bilmasligi mumkin. Shu bois, tajribada ba'zan shaxs o'z huquqlarini bilmagani sababli huquqlari buzilib ketishi xavfi tug'iladi.

O'rganishlar davomida ayrim xorijiy davlatlarda (Gruziya, Belarusiya, Qozog'iston) "Yopiq ishlar yagona reestri" (Unified Register of Pre-Trial Investigations) joriy etilgan bo'lib, jinoyat to'g'risida tushgan har bir xabar ushbu elektron reestrda darhol ro'yxatga olinadi va avtomatik ravishda tergov harakatlari boshlanadi. Bu esa soxta dalillar to'plash yoki jinoyat ishini qo'zg'atmaslik amaliyotiga chek qo'yadi. Hozirgi davlatimiz Asosiy Qonunda ilk bor shaxs ushlangan chog'da uning huquqlarini tushuntirish majburiyati, 48 soat ichida sud qarorisiz ozodlikdan mahrum etish taqiqlanishi, har bir bosqichda advokat yordamidan foydalanish huquqi kabi kafolatlar mustahkamlab qo'yildi.

Shunday qilib, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etish muammosi jinoyat protsessining boshqa bosqichlaridagidan kam bo'lmagan darajada dolzarbdir. Ayrim, tadbirida ya'ni kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shaxslarni huquqlari mustahkamlanmagan. Jinoyat ishini qo'zg'atish jarayonida protsessual xususiyatga ega bo'lmagan boshqa majburiy harakatlar (amalda ushlab turish, olib kelish) ham sodir etilishi mumkin. Jinoyat protsessining har qanday bosqichida majburlov harakatlari shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishga tahdid solishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, himoyaga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Ta'kidlash joizki, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida majburlovni qo'llash doirasi protsessning boshqa bosqichlariga nisbatan uncha katta emas. Biroq, majburlov elementlaridan xoli bo'lgan harakatlarni amalga oshirishda ham himoya qilish zarurati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish – inson huquqlari ustuvorligining amaliy namoyoni sifatida – doimiy e'tiborda bo'lishi lozim. Mazkur bosqichda huquqiy tartibotni yaratish orqali davlat fuqarolarning qonuniy manfaatlarini to'liqroq ta'minlashi, jamiyatning odil sudlovga bo'lgan ishonchini mustahkamlashi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, qonuniylik prinsipini qaror toptirishga va mamlakatimizda adolat ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi PQ-3723-sonli "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: O'zbekiston, 2025.